


1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. O'zbekistondagi barcha mutlaq balandliklar qayerdan hisoblanadi?

- A) Atlantika okeanining Boltiq dengizi sathidan
- B) Hind okeanining Arabiston dengizi sathidan
- C) Tinch okeanning Bering dengizi sathidan
- C) Shimoliy Muz okeanining Barens dengizi sathidan

2. Janubiy Amerika va Tinch okean litosfera plitalari rasmda qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 1 va 2
- B) 7 va 5
- C) 3 va 5
- D) 4 va 6

3. Dengizning chuqurligi 7500 metr bo'lsa, exolotdan yuborilgan tovush to'liqini qancha vaqtda dengiz tubiga yetib borishini hisoblang.

- A) 5 sekund
- B) 7,5 sekund
- C) 10 sekund
- D) 15 sekund

4. Atlantika okeani bilan O'rta dengizni qaysi bo'g'iz tutashtiradi?

- A) La-Mansh
- B) Dardanel
- C) Bob-El Mandeb
- D) Gibraltar

5. Janubiy Amerikada ekvatorial o'rmonlar nima deb ataladi?

- A) paramos
- B) pampa
- C) patagoniya
- D) selva

6. Tayyor mahsulot tayyorlashda bir qancha korxona qatnashadigan ishlab chiqarish shakli nima deb ataladi?

- A) kooperativlashuv
- B) majmua
- C) ixtisoslashuv
- D) markazlashuv


7. Avstraliyada qaysi iqlim mintaqasi katta maydonni egallaydi?

- A) subekvatorial
- B) tropik
- C) subtropik
- D) mo'tadil

8. Quyidagi ko'llardan qaysi biri to'g'on ko'l hisoblanadi?

- A) Baykal ko'li
- B) Kaspiy dengiz
- C) O'lik dengiz
- D) Sarez ko'li

9. Quyidagi rasmdagi A nuqtaning geografik koordinatasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?



- A) 40° shimoliy kenglik va 40° sharqiy uzunlik
C) 40° shimoliy kenglik va 40° g'arbiy uzunlik

- B) 40° janubiy kenglik va 40° g'arbiy uzunlik
D) 40° janubiy kenglik va 40° sharqiy uzunlik

10. Qaysi ko'l Janubiy Amerika materigining shimolida joylashgan?

- A) Titikaka B) Poopo C) Marakaybo D) Patus

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Quyidagilardan yassitog'liklar to'g'ri berilgan javobni belgilang.

1) O'rta Sibir; 2) Amazonka; 3) G'arbiy Sibir; 4) Braziliya; 6) And; 7) Kordilyera; 8) Sharqiy Yevropa;
9) Turon; 10) Tyanshan.

- A) 1; 3 B) 1; 9; 10 C) 1; 4 D) 2; 6

12. Quyidagilardan qaysi davlatlar tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi?

- A) Xitoy va Yaponiya B) Pokiston va Hindiston
C) Xitoy va Hindiston D) Indoneziya va Hindiston

13. Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning qaysi qismida juda katta maydonlarni tundra tabiat zonasi egallagan?

- A) shimoliy B) janubiy C) g'arbiy D) sharqiy

14. Ustyurt platosining janubi-sharqida qaysi botiq joylashgan?

- A) Borsakelmas B) Asaka-ovdan C) Sariqamish D) Qoragiyo

15. "Daryolar keltirayotgan tog' jinslarining massasi (katta-kichikligi) suv oqimining tezligiga to'g'ri proporsional" ekanligini kim aniqlagan?

- A) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy B) Abu Rayhon Beruniy
C) Zahiriddin Muhammad Bobur D) Ahmad al-Farg'oni

16. Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi davlatlarni joylashgan geografik o'rniga ko'ra qanday davlatlar hisoblanishadi?

- A) orol davlatlar B) yarimorol davlatlari
C) dengizbo'yi kontinental davlatlar D) materik ichkarisidagi davlatlar

17. Quyidagilardan og'ir sanoat tarmoqlari to'g'ri keltirilgan javobni belgilang. 1) yoqilg'i; 2) matbaachilik; 3) to'qimachilik; 4) elektroenergetika; 5) poyabzalchilik; 6) qurilish materiallari; 7) kimyo.

- A) 1; 2; 5; 6 B) 1; 2; 4; 6 C) 1; 3; 4; 7 D) 1; 4; 6; 7

18. Qaysi transport tarmog'i iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramasdan hamma vaqt ishlayveradi?

- A) suv B) temiryo'l C) avtomobil D) havo

19. Qaysi viloyatda mamlakatimizdagi eng yirik yerosti gaz ombori barpo etilgan?

- A) Qashqadaryo B) Navoiy C) Andijon D) Xorazm


20. Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoda asosiy e'tiqod manbayi bo'lgan din qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) xristianlik B) islom C) buddizm D) induizm

21. Quyidagilardan qaysi dengiz Lena daryosining mansabi hisoblanadi?

- A) Barents B) Kara C) Laptevlar D) Sharqiy Sibir

22. Quyidagi xaritada Hisor tizmasi qaysi raqam ko'rsatilgan?



- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

23. Avstraliya sharqidagi Katta To'siq rifi qaysi sayyoh tomonidan kashf etilgan?

- A) Jorj Bass B) Metyu Flinders C) Abel Tasman D) Luis Torres

24. Muhofaza etiladigan hududlar qaysi materikning 1% ini tashkil etadi?

- A) Shimoliy Amerika B) Yevrosiyo C) Janubiy Amerika D) Afrika

25. Quyidagilardan qaysi biri IES qurilishi munsabati bilan qad ko'targan?

- A) Beruniy B) Kogon C) Zarafshon D) Taxiatosh

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. Quyidagilardan qaysi shaharda superfosfat, elektr mashinasozligi, to'qimachilik mashinasozligi zavodlari mavjud?

- A) Farg'ona B) Quvasoy C) Qo'qon D) Marg'ilon

27. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi hududlarida parrandachilik rivojlangan?

- A) poliz ekinlari yetishtiriladigan joylarda B) yem-xashak ekinlari yetishtiriladigan joylarda
C) texnik ekinlar yetishtiriladigan joylarda D) donli ekinlar yetishtiriladigan joylarda

28. Quyidagi fikrlardan to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) Globus va xaritalardagi parallel chiziqlar geografik kenglikni bildiradi
B) Globus va xaritalardagi meridian chiziqlar geografik kenglikni bildiradi
C) Globus va xaritalardagi parallel chiziqlar geografik uzunlikni bildiradi
D) Globus va xaritalardagi qutblar geografik uzunlikni bildiradi


29. Bosniya va Gersegovinaning federativ davlat sifatida barpo etishda quyidagilardan qaysi sabab hisobga olingan?

- A) tarixiy rivojlanganlik xususiyatlari B) hududining benihoya kattaligi
C) hududining sochilib ketganligi D) aholisining ko'p millatliligi

30. Matnni o'qing.

Bu daryo o'rta oqimida tekislik daryosi, lekin yuqori va o'rta oqimlarida ostonalar, sharsharalar ko'p. Daryoning kattagina qismi qurg'oqchil yerlardan oqib o'tadi. Shuning uchun daryo suvi yerlarni sug'orishdagi ahamiyati katta. Shu maqsadda daryoga to'g'onlar qurilgan, kanallar qazib, suv chiqarilgan.

Matnda berilgan ma'lumotlar quyidagi rasmda qaysi raqam ostidagi daryoga oid ekanligini aniqlang.



- A) 1 B) 2 C) 4 D) 11

31. Qaysi mintaqalar ilk insonlar paydo bo'lgan va birinchi bo'lib o'zlashtirilgan hududlar hisoblanadi.

- A) Shimoli-sharqiy va Sharqiy Osiyo, Janubiy Yevropa
B) Shimoli-sharqiy va Sharqiy Yevropa, Janubiy hamda Old Osiyo
C) Shimoli-sharqiy va Sharqiy Yevropa, Janubiy Afrika hamda Old Osiyo
D) Shimoli-sharqiy va Sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa hamda Old Osiyo

32. Qaysi mintaqada aholi tabiiy o'sish koeffitsienti jahon o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori?

- A) Avstraliya va Okeaniya B) Osiyo C) Amerika D) Afrika

33. Farg'ona iqtisodiy rayoni quyidagi qaysi ko'rsatkichlari jihatidan iqtisodiy geografik rayonlar ichida birinchi o'rinda turadi?

- A) yoqilg'i, gidroenergetika resurslariga boyligi
- B) polimetall rudalari va mineral o'g'itlar salmog'i
- C) sug'oriladigan yerlar, chorva mollari va aholi soni
- D) aholisining soni, zichligi va ishchi kuchlarining salmog'i

34. Matnni o'qing.

Viloyat qishloq xo'jaligi rivojlangan. O'zlashtiriladigan yerlar deyarli qolmagan. Paxtaning yalpi hosili faqat hosildorlikni ko'tarish hisobiga oshirilmoqda. Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, asosan, shaharlar atrofida yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida bog'dorchilik salmoqli o'rin tutadi. Bog' va tokzorlar adirlar hisobiga kengay moqda. Ixtisoslashgan bog'dorchilik xo'jaliklari bor.


Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi viloyatga oid ekanligini aniqlang.

- A) Farg'ona B) Samarqand C) Andijon D) Qashqadaryo

35. Matnni o'qing.


Bu zona subekvatorial iqlim mintaqalari pasttekisliklari va yassitog'liklarida joylashgan. Shimoliy yarimsharning ushbu zonasidagi o'tloq yerlarda palmalar va akatsiyalar o'sadi. Janubiy yarimshardagisida daraxtlar kam. Braziliya yassitog'ligining markaziy qismida qurg'oqchil, bu yerda pakana daraxtlar, daraxtsimon kaktuslar o'sadi.

Matnda berilgan ma'lumotlar quyidagi xaritada qaysi raqam ostida ko'rsatilgan tabiat zonasiga oid ekanligini aniqlang.



- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

36. Xaritada raqamlar bilan belgilangan tekisliklarning zamini yosh hisoblanadiganlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?



- A) 1; 10; 14 B) 1; 12; 14 C) 2; 11; 14 D) 2; 10; 11

37. Quyidagilardan qaysi asosiy o'zgarishlar kaynazoy erasida sodir bo'lgan?

1) toshko'mir hosil bo'lgan; 2) yosh tog'lar shakllangan; 3) hozirgi keksa tog'lar paydo bo'lgan; 4) oddiy bakteriyalar paydo bo'lgan; 5) iqlim mintaqalari shakllangan; 6) suvo'tlar paydo bo'lgan; 7) bahaybat dinosavrlar paydo bo'lgan 8) tabiat zonalari shakllangan.

- A) 1; 5; 7 B) 2; 5; 8 C) 3; 4; 6 D) 1; 3; 7

38. Jahon yer fondining 3 % ini qanday yerlar tashkil etadi?

- A) qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar
B) o'rmonlar
C) aholi punktlari va muhandislik inshootlari bilan band bo'lgan texnogen yerlar
D) kam foydalaniladigan unumsiz yerlar

39. Quyidagilardan qaysi biri tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi tarkibiga kirmaydi?

- A) Hindiston B) Indoneziya C) Braziliya D) Meksika

40. Quyidagi orollardan qaysi biri Atlantika okeanida joylashmagan?

- A) Korsika B) Krit C) Sokotra D) Sitsiliya